

RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA MOLIYAVIY SAVODXONLIKNI OSHIRISH MASALALARI

Ismoilova Mohiraxon Iqbol qizi

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti talabasi

So'nggi yillarda raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi natijasida iqtisodiy munosabatlar mazmuni va shakli tubdan o'zgarib bormoqda. Moliyaviy xizmatlar ko'rsatish tizimi ham ushbu transformatsiya jarayonining ajralmas qismiga aylanib, bank operatsiyalari, kreditlash, investitsiya va to'lov amaliyotlari asosan elektron platformalar orqali amalga oshirilishi jadallashdi. O'zbekiston Respublikasi Markaziy Banki tomonidan ishlab chiqilgan "Moliyaviy xizmatlar ommabopligini oshirish bo'yicha 2021–2023-yillarga mo'ljallangan milliy strategiya"ning tasdiqlanishi ushbu yo'nalish mamlakatda davlat siyosatining ustuvor va strategik ahamiyatga ega yo'nalishlaridan biri ekanini ko'rsatadi.[1] Mazkur jarayon aholining moliyaviy qaror qabul qilish mexanizmini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqdi. Endilikda kredit rasmiylashtirish, investitsiya kiritish, jamg'arma shakllantirish va to'lovlarni amalga oshirish kabi moliyaviy operatsiyalarni masofaviy hamda tezkor tarzda amalga oshirish mumkin. Moliyaviy xizmatlarning raqamlashtirilishi qaror qabul qilish jarayonini yanada murakkablashtirdi. Onlayn kreditlar, elektron hamyonlar va investitsiya platformalari qulaylik yaratishi bilan birga, ularning shartlari, foiz yuklamasi va risk darajasini chuqur anglash zaruratini yuzaga keltiradi. Yetarli bilim va tahlil ko'nikmasi mavjud bo'lmagan sharoitda tezkor qarorlar moliyaviy yo'qotishlarga sabab bo'lishi tabiiy.

Moliyaviy savodxonlik shaxslarning budjetni boshqarish, jamg'arma va investitsiyalarni rejalashtirish hamda qarz majburiyatlarini oqilona boshqarish qobiliyatlarini o'z ichiga oladi. Tadqiqotlar, xususan Annamaria Lusardi ishlariga ko'ra, moliyaviy savodxonlik darajasi past bo'lgan shaxslar moliyaviy resurslarni samarali taqsimlay olmaydi, uzoq muddatli rejalashtirishga yetarlicha e'tibor bermaydi va qarz yukini orttiradi.[2] Shu bilan birga, moliyaviy savodxonlik milliy jamg'arma hajmi va makroiqtisodiy o'sishga bevosita ta'sir ko'rsatishi, shaxsiy darajadagi moliyaviy qarorlar bilan makroiqtisodiy natijalar o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni ko'rsatadi. Ushbu faktor moliyaviy savodxonlik masalasini tor shaxsiy ehtiyojlar doirasidan chiqarib, uni makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlashga xizmat qiluvchi strategik ahamiyatga ega muhim omilga aylantiradi.

Shuningdek, raqamli makonning kengayishi moliyaviy firibgarlik va kiberxavflar ko'lamini sezilarli darajada orttirdi. Soxta investitsiya loyihalari, fishing xabarlarini hamda noqonuniy tranzaksiyalar, ayniqsa, moliyaviy savodxonlik darajasi past bo'lgan aholi qatlamlari uchun jiddiy moliyaviy

yo'qotishlarga sabab bo'lmoqda. Bu esa moliyaviy bilim va ko'nikmalarni mustahkamlash masalasini dolzarb ijtimoiy-iqtisodiy vazifaga aylantiradi.


Shu nuqtai nazardan, O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan moliyaviy savodxonlikni oshirishga qaratilgan kompleks va tizimli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Xususan, hududiy qamrov kengaytirilib, ijtimoiy-iqtisodiy sharoiti murakkab bo'lgan 3–5 toifaga mansub 71 ta chekka tumanda o'quv va targ'ibot ishlari yo'lga qo'yildi. Tijorat banklari bilan hamkorlikda tashkil etilgan davra suhbatlari hamda treninglar doirasida fuqarolarga mikromoliyaviy xizmatlar, imtiyozli kreditlash dasturlari, mas'uliyatli qarz olish tamoyillari, ijobiy kredit tarixini shakllantirish va moliyaviy xavfsizlik qoidalari bo'yicha amaliy bilimlar berildi. Xususan, Surxondaryo viloyatining 9 ta tumanida o'tkazilgan o'quv mashg'ulotlarida 683 nafar fuqaro, jumladan 482 nafar xotin-qiz ishtirok etdi. [3] Mazkur natijalar moliyaviy savodxonlikni oshirish siyosati hududiy va ijtimoiy jihatdan ehtiyoj yuqori bo'lgan qatlamlarni qamrab olgan holda, manzilli yondashuv asosida hamda izchil ravishda amalga oshirilayotganini tasdiqlaydi.

So'nggi besh yillik statistik ma'lumotlar tahliliga ko'ra, O'zbekistonda jismoniy shaxslarga ajratilgan kreditlar hajmi 4,3 baravarga ortib, 172,8 trillion so'm miqdoriga yetgani kuzatilmoqda.[3] Mazkur tendensiya aholining kredit mahsulotlaridan foydalanish imkoniyatlari kengayib borayotganini ko'rsatishi bilan birga, ushbu jarayonning iqtisodiy samaradorligini ta'minlash uchun kredit shartlari va mexanizmlarini chuqur anglash hamda jalb etilgan mablag'lardan oqilona va maqsadli foydalanish zaruratini ham taqozo etadi. Shu nuqtai nazardan, mamlakatda moliyaviy savodxonlik darajasi ko'rsatkichlarini o'rganish va baholash dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Mazkur ko'rsatkichlarning batafsil tahlili O'zbekiston sharoitida moliyaviy savodxonlik darajasi tarkiban nomutanosib shakllanayotganini ko'rsatadi. Ya'ni ayrim yo'nalishlarda nisbatan yuqori natijalar qayd etilgan bo'lsa-da, murakkab moliyaviy qarorlar qabul qilish uchun zarur bo'lgan bilim va ko'nikmalar yetarli darajada shakllanmagan.

Birinchiidan, aholining kredit foizlari mohiyatini anglash darajasi yuqori ekani kuzatilib, respondentlarning 88 foizi kredit bo'yicha foiz to'lovlarini to'g'ri tushunganligi aniqlangan.

Mazkur holat bank xizmatlarining keng ommalashuvi hamda kredit mahsulotlari to'g'risidagi axborotning kengroq tarqalayotganidan dalolat beradi. Shu bilan birga, inflyatsiya tushunchasini to'g'ri anglash darajasining 75 foizni tashkil etgani aholining narxlar o'zgarishi va pulning qadrsizlanish jarayonlariga nisbatan sezgirliги ortib borayotganini ko'rsatadi.



1-diagramma. Moliyaviy bilimlarga oid yettita savolga to'g'ri javob bergan respondentlar ulushi. (%) [4]

Biroq moliyaviy savodxonlikning murakkabroq tarkibiy qismlari bo'yicha sezilarli kamchiliklar mavjudligi kuzatilmoqda. Xususan, murakkab foiz tushunchasini to'g'ri anglagan respondentlar ulushi atigi 11,3 foizni tashkil etgani investitsiya daromadlarini hisoblash, depozitlar rentabelligini baholash hamda kreditlarning real qiymatini aniqlash borasida yetarli bilimlarning shakllanmaganini anglatadi. Oddiy foiz hisoblash ko'nikmasining 28 foiz darajasida ekani esa moliyaviy hisob-kitoblar madaniyatining sust rivojlanganidan dalolat beradi. Natijada kredit mahsulotlarini noto'g'ri tanlash, ortiqcha foiz to'lovlariga duch kelish hamda moliyaviy firibgarlik xavfining ortishi ehtimoli kuchayadi. Shuningdek, risklarni diversifikatsiya qilish ko'rsatkichining 47 foiz darajasida ekani investitsiya qarorlarida tavakkalchilikni boshqarish madaniyati yetarli darajada shakllanmaganini ko'rsatadi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonda moliyaviy savodxonlik darajasi yo'nalishlar kesimida notekis shakllangan: oddiy kredit va inflyatsiya tushunchalari nisbatan yaxshi o'zlashtirilgan bo'lsa-da, murakkab foiz, investitsiya va risklarni diversifikatsiya qilish kabi masalalarda bilimlar sezilarli darajada yetishmaydi. Bu holat aholining uzoq muddatli moliyaviy rejalashtirish imkoniyatlarini cheklab, kredit yukining ortishi va noto'g'ri investitsiya qarorlariga olib kelishi mumkin. Shunday ekan, moliyaviy savodxonlikni oshirish individual manfaatdan tashqari iqtisodiy samaradorlik, ijtimoiy himoya va barqaror rivojlanish bilan bevosita bog'liq strategik vazifa sifatida qaralishi lozim.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, quyidagi takliflar ilgari suriladi:

- umumta'lim maktablari va OTMLlarda "Shaxsiy moliya" fanini majburiy komponent sifatida joriy etish hamda amaliy mashg'ulotlar ulushini oshirish;
- kredit rasmiylashtirish jarayonida qisqa majburiy onlayn moliyaviy savodxonlik testini joriy etish;

➤ bank mobil ilovalarida moliyaviy kalkulyatorlar va tushuntiruvchi mini-kurslarni joylashtirish

➤ ijtimoiy tarmoqlarda (Telegram, Instagram va boshqalar) moliyaviy xavfsizlik va mas'uliyatli qarz olish bo'yicha doimiy axborot kampaniyalarini yo'lga qo'yish

➤ hududlar kesimida moliyaviy savodxonlik darajasini baholovchi monitoring tizimini joriy etish.

Xulosa qilib aytganda, moliyaviy savodxonlikni oshirish aholining iqtisodiy faolligini kuchaytirish, moliyaviy barqarorlikni ta'minlash va uzoq muddatli iqtisodiy o'sishni rag'batlantirishning muhim sharti hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. Moliyaviy xizmatlar ommabopligini oshirish milliy strategiyasi (2021–2023 yillar).

<https://cbu.uz/upload/iblock/a87/Moliyaviy-khizmatlar-ommabopligini-oshirish-milliy-strategiyasi.pdf>

2. Lusardi.A & Mitchell.O. 2014. *The Economic Importance of Financial Literacy: Theory and Evidence. Journal of Economic Literature*

3. O'zbekiston Respublikasi Markaziy Banki rasmiy sayti — <https://cbu.uz/uz/>

4. OECD. 2021. *Financial Literacy Levels in the Commonwealth of Independent States in 2021*

www.oecd.org/financial/education/financial-literacy-levels-in-the-commonwealth-of-independent-states-2021.htm

ВОЗМОЖНОСТИ ПРИМЕНЕНИЯ ЗАРУБЕЖНОГО ОПЫТА ПРИВАТИЗАЦИИ АВИАЦИОННОЙ ОТРАСЛИ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН

Т.А. Кадыров

Старший научный сотрудник Центра исследований проблем приватизации и управления государственными активами при Агентстве управления государственными активами Республики Узбекистан

Авиационная отрасль является стратегическим элементом национальной экономики, обеспечивая развитие туризма, интеграцию в мировые рынки и укрепление транзитного потенциала страны. В условиях глобализации и усиления конкуренции на рынке авиаперевозок вопрос повышения эффективности управления отраслью приобретает большую актуальность. Одним из инструментов реструктуризации и модернизации является приватизация — частичная или полная передача активов в частные руки, либо внедрение механизмов государственно-частного